

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA TO‘G‘RI YOZISH KO‘NIKMASINI
RIVOJLANTIRISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA UNING YECHIMLARI**

Subxonova Sanobar Abduhalim qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**PROBLEMS ENCOUNTERED IN DEVELOPING CORRECT WRITING SKILLS IN
PRIMARY CLASS STUDENTS AND THEIR SOLUTIONS**

Subkhonova Sanobar Abduhalim kizi
Basic doctoral student of Navoi State Pedagogical Institute
subhonasano@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20726543>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan imloviy xatoliklar hamda ularning sabab va bartaraf etish yo‘llari haqida fikr va xulosalar olib borilgan bo‘lib, unda bir qancha usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘g‘ri yozish malakalarini rivojlantirish borasida tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ri yozish malakasi, imloviy savodxonlik, orfografiya qoidalari, mahaliy sheva, orfografik hushyorlik, mashq, topshiriqlar tizimi.

Abstract: In this article, there are opinions and conclusions about the spelling mistakes of elementary school students and their causes and ways to eliminate them. recommendations were given on the development of writing skills.

Key words: correct writing skills, spelling literacy, spelling rules, local dialect, spelling awareness, exercise, assignment system.

KIRISH / INTRODUCTION: Jamiyatda har bir shaxsning adabiy til me‘yorlari asosida to‘g‘ri yozishi – savodxonlik darajasi madaniylikning muhim belgilaridandir. Yozma nutqning to‘g‘ri va to‘kis bo‘lmog‘i uchun esa imlo qoidalari nazariy va amaliy jihatdan puxta bilish shartdir. Chunonchi, imlo qoidalari – savodxonligimiz asosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Imlo adabiy tilning yozma shakli bilan aloqador bo‘lib, u to‘g‘ri yozish qoidalari o‘rgatuvchi hamda ular haqida batafsil ma‘lumot beruvchi tilshunoslikning alohida bir bo‘limidir. Imlo qoidalari orqali biz so‘z va so‘z shakllarining bir xilda yozilishini tartibli tarzda yozma nutqda ifoda etamiz.

Muhtaram Prizidentimiz Sh.M. Mirziyoyev e‘tirof etib o‘tganlaridek: «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish, ta‘lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur». [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / MATERIALS AND METHODS: Avvalambor, imlo masalasi har qanday davrda ham juda muhim mavzu bo‘lib kelgan hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma savodxonlik malakalarini rivojlantirish uchun esa faqatgina darsliklarning o‘zi kamlik qiladi. Ya‘ni har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining to‘g‘ri yozish malakalarini rivojlantirish maqsadida birinchi navbatda, ularda uchraydigan muammo va kamchiliklarni o‘rganib chiqqan holda ularga turli metodik materiallar va usullar yordamida yechimlar izlanishi esa maqsadga muvofiqdir. Aynan boshlang‘ich sinflarda mahaliy shevalar ta‘sirida yozma nutqda orfografik xatoliklar juda ko‘p uchraydi. Jumladan ushbu muammo borasida ham mutaxassis N.Q. Murodova “O‘quvchilar nutqida mahaliy shevalar ta‘sirida

yozilgan soʻzlarni toʻgʻrilab yozishga undaladi va oʻquvchining malakasidan kelib chiqib koʻzlangan maqsadga erishiladi.

XULOSA/CONCLUSION: Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining toʻgʻri yozish malakalarini rivojlantirish bu kelajakda jamiyat uchun oʻz fikrini yozma tarzda toʻgʻri va ravon ifoda eta oladigan shaxslarni yetishtirib chiqarish demakdir. Bunda esa boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga qoʻyiladigan talab: darslikva dasturdan tashqari turli metodik materiallar hamda pedagogik texnologiya va usullar orqali oʻquvchilarning imloviy kʻnikmalarini rivojlantirishdir. Chunki, aynan boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga orfografik qoidalarni yodlatib emas, amaliy mashq va topshiriqlar yordamida oʻrgatish oson va samaraliroq usuldir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Муродова Н.Қ. Ўқувчилар нутқида маҳалий шевалар таъсирида вужудга келадиган талаффуз ва имло хатолари ва уларни тузатиш усуллари. Диссертация. Тошкент. – 1993.
3. Асрор Самад “Х” ва “Ҳ” лик сўзларнинг имло луғати. “Ғафур Гулом”. Тошкент. – 1993. 79 б.
4. Тоʻхлиев В. , Abdullayeva Н., Ametova О., Yadgarov Q., Abdurahmonova В., Tilavova G., Toʻxliyeva D. Imlono oʻrganamiz. Bayoz . Qoʻllanma. Toshkent. – 2015. 123 b.
5. Toʻxliyeva D. Qoʻshib, ajratib va chiziqcha bilan yoziladigan soʻzlar lugʻati. Lugʻat. Bayoz. Toshkent. – 2019. 103 b.
6. Toʻxliyeva D. Imlono oʻrganamiz. Metodik qoʻllanma. Bayoz. Toshkent. – 2020. 126 b